

УЎК: 821.512.133-1
КБК 84(5Ў)7
Қ-71

Қувватов, Отабек

Қ-71 Қалб садолари: шеърлар / О.Қувватов;
Тошкент: "Муҳаррир" нашриёти, 2013. 32 б.

ISBN 978-9943-25-230-1

Ҳаваскор қаламкаш эркин ва озод ҳаётни, обод диёрни, унинг дилбар табиатини илҳом билан, жўшиб куйлайди. Инсонни тўғри ва ҳалол, меҳр-оқибатли бўлишга чақирувчи ҳикматли битикларда ҳам унинг ёниқ ва безовта қалб тебранишлари сезилади. Умуман барча шеърлар муаллифнинг чин маънодаги қалб садоларидай жаранглайди.

УЎК: 821.512.133-1
КБК 84(5Ў)7

Тақризчи:

Мирзо Аҳад,

Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси аъзоси

ISBN 978-9943-25-230-1

© "Muharrir" нашриёти,
Тошкент, 2013 й.

Мустақиллигимизнинг шонли 22 йиллигига бағишлайман
Муаллиф

ВАТАН ҚОЛАДИ

Муҳаммад Юсуфга ўхшатма

Ўтар қанча баҳорлар бир-бир,
Неча ёз-куз, қишлар, қор-ёмғир.
Мангу эмас оламда ҳеч ким,
Биз кетармиз дунёдан охир.
Бахтли авлод-фарзанд қолади,
Биздан озод Ватан қолади.

Йўлга чиқди буюк бир карвон,
Йўли узун, ойдин ва равон,
Қўнғироғин садоси янграб.
Қадамидан лол қолсин жаҳон
Қутлуғ излар-қадам қолади,
Биздан озод Ватан қолади.

Кам эмасмиз, кам бўлмагаймиз,
Ҳеч кўзлари нам бўлмагаймиз.
Зарбимиздан танг қолур ғаним,
Асло ҳоли танг бўлмагаймиз.
Ғолиб нидо - жаранг қолади,
Биздан озод Ватан қолади.

Дунёларни тутгай донғимиз,
Доим балқиб отгай тонғимиз.
Ҳар кўнгилга эзгулик тилаб
Олам узра янграр бонғимиз:
Ўзбекистон чаман қолади,
Биздан озод Ватан қолади!!!

ЮРТИМ ДОСТОНИ

Бағри кенг юртимсан жон Ўзбекистон,
Замининг бойликка кон, боғинг бўстон,
Меҳрга бой, иноқ, халқинг меҳрибон
Шаънингни улуглаб, битай мен достон.

Асрлар қаъридан овозанг келур,
Жаннатий боғлардан саболар елур,
Кафтингдан хумолар ризқ-рўзин терур,
Шанингни улуглаб, битай мен достон.

Боболар ўгити хазина-дунё,
Зулматни ёритиб таралган зиё,
Ҳар доно сўзини дилга этиб жо,
Шаънингни улуглаб, битай мен достон.

Илм эшиқларин очган улуглар,
Оламга эзгулик сочган улуглар,
Хокини эъозлаб, қилиб "қуллуқ"лар,
Шаънингни улуглаб, битай мен достон.

Истиқлол нуридан яшнаган ўлкам,
Шаҳарлар чиройли, қишлоқлар кўркам,
Қизлари гўзалдир, йигитлар ўктам.
Шаънингни улуглаб, битай мен достон.

Бундайин гўзал юрт қайда бор, айтинг,
Барака ҳамда қут қайда бор айтинг,
Эли шод, бағри бут қайда бор, айтинг
Не учун шаънига битмайин достон?!



МУҚАДДАС ВАТАН

Сени деб қон тўккан не полвон бобом,
Сени деб жондан кечган ҳоқон бобом,
Сени деб айланса не замин-замон,
Сен шундай муқаддассан, улуғ Ватан.

Бағрингда улғайди улуғ Синолар,
Юлдуз кўзлаган Улуғбек Мирзолар,
Навоий қалбидан оқди наволар.
Сен шундай муқаддассан, улуғ Ватан.

Осмонингда Чўлпон порлаб туради,
Элни эрка ундаб-чорлаб туради.
Қодирийлар руҳи кезиб юради,
Сен шундай муқаддассан, улуғ Ватан.

Истиқлол зиёси чулғади бугун,
Ҳуррият боғлари гуллади бугун,
Дунё ҳам бахтингни қутлади бугун
Сен шундай муқаддассан, улуғ Ватан.

НОН АЗИЗ

Бобо деҳқон меҳнати,
Она ернинг зийнати,
Ҳар ерда бор ҳурмати,
Ҳар недандир нон азиз.

Нонвой бобо тандири,
Ширмой пишар ҳар бири,
Тотиб кўринг таъмини,
Ҳар недандир нон азиз.

Болажон, билгин ҳаққин,
Доим баланд тут қадрин,
Ушоғин туширмагин,
Ҳар недандир нон азиз.

МУНОСИБ БЎЛАЙЛИК

Шу улуғ, озод, обод, юртни суюб,
Тупроғин азиз муқаддас деб билиб,
Меҳрибон халқ хизматин дилдан қилиб,
Ватанга муносиб, фарзанд бўлайлик.

Камол топишига, ҳиссамиз қўшиб,
Ғайратдан, томирда қонимиз жўшиб,
Яратиб, яшнатиб, куч олиб, ўқиб,
Ватанга муносиб, фарзанд бўлайлик.

Ота-она бошин ерга қаратмай,
Тўғри йўлдан олга бориб, адашмай.
Ҳалол элга чин фарзандлар ярашгай,
Ватанга муносиб, фарзанд бўлайлик.

ҚАДРИГА ЕТ

Яшаб шу, ҳур замонда,
Шундай, обод маконда,
Дил-дилигдан иқрор бўл -
Бундай юрт йўқ, жаҳонда!
Юртингни ҳимоя эт,
Истиқлол қадрига ет!

Дунёга эшик очиқ,
Имконлар зардай сочиқ.
Ўқиб камол топ, юксал,
Бари ўзингга боғлиқ.
Юртингни ҳимоя эт,
Истиқлол қадрига ет.

Аждод руҳин этиб шод,
Азиз номин айла ёд.
Файз қўшгил ўз умрингга
Ватанни қилиб обод,
Юртингни ҳимоя эт,
Истиқлол қадрига ет.

ИЗҲОР

Она юртим Ўзбекистоним,
Ўзинг менинг ёруғ жаҳоним,
Ўзинг обод, азиз бўстоним,
Буюк ва мустақил ватаним.

Сен борсанки, бағрим бутундир,
Сен тинчсанки, бахтим бутундир,
Сенга меҳрим ҳар недан устундир,
Буюк ва мустақил ватаним.

Меҳрибон халққа қилай таъзим,
Унга хизмат қилмоқдир қарзим,
Ишқи билан тирикман ҳар зум,
Буюк ва мустақил ватан.

Сен паноҳим, бошда соябон
Отам каби улуғ қадрдон,
Онам каби суюк, меҳрибон,
Буюк ва мустақил ватан.

Ҳар бир зарранг менга зар, давлат,
Ҳар караминг менга тожу тахт,
Ҳар лутфинг менга минг иноят,
Буюк ва мустақил ватаним.



НОШУКУР БЎЛМАНГ

Бор неъматни шукрин қилинг,
 Яратганни зикрин қилинг,
 Юрт тинчлигин қадрин билинг,
 Азизлар, ношукр бўлманг.
 Кулоғингиз билиб турса,
 Оёғингиз юриб турса,
 Кўзларингиз кўриб турса,
 Азизлар, ношукр бўлманг.
 Фарзандлар баркамол бўлса,
 Ҳам шоду бахтиёр бўлса,
 Не бахт, шундай диёр бўлса!
 Азизлар, ношукр бўлманг.

АВЛОД

Биз эркин болалармиз,
 Тинчликдир тилагимиз.
 Яшнаган лолалармиз,
 Ватан келажагимиз!

Интиламиз чўққига,
 Кучимиз мўл, кўп жуда,
 Бургутмиз юрт кўкида,
 Ватан келажагимиз!

Олиб илм-гавҳарни,
 Эғалаб, ҳар ҳунарни,
 Юксакларни кучармиз,
 Ватан келажагимиз!

Кўтариб юрт байроғин,
 Яшнатиб дала-боғин,
 Ёқиб ҳурлик чироғин,
 Ватан келажагимиз!

Эмасмиз, ҳеч кимдан кам,
 Ҳеч кимга эмас қарам,
 Боримиз шу - ҳур ватан,
 Ватан келажагимиз!

ОТА ТИЛАГИ

Фарзанд экан неъматларнинг сараси,
 Қизларим бедор қалбимнинг парчаси,
 Ўғлим менинг ёшлигим нишонаси,
 Тангрим, бахт бер, кўриб кўзим қувонсин.

Адаштирма, тўғри йўлдан тоймасин,
 Доим юрти хизматидан қолмасин.
 Илм олиб, камол топиб, толмасин,
 Тангрим, бахт бер кўриб кўзим қувонсин.

Ўргансин ҳунарлар, қўли гул бўлсин,
 Меҳрга зор қилма, меҳри мўл бўлсин,
 Шундан ота-она ҳаққини билсин,
 Тангрим бахт бер кўриб кўзим қувонсин.

Комил инсон бўлсин олиб тарбия,
 Шерик бўлсин она халқин дардига,
 Содиқ бўлсин доим ўз миллатига,
 Тангрим, бахт бер кўриб кўзим қувонсин.

Не касб танласа, ўзида ихтиёр,
 Ёшликда ўқисин, бунга имкон бор.
 Тилагим шу: доим бўлсин бахтиёр
 Тангрим бахт бер кўриб кўзим қувонсин.



ОЛҚИШ

Қанча куйласак ҳам Ватан ҳақида,
 Қанча сўйласак кам Ватан ҳақида.
 Бу жоним фидо сенга, онажоним,
 Гулла, яшнагин, ҳур Ўзбекистоним.

Ҳар инсон сенда эркин, озод ҳурдир,
 Ҳар майса малҳаму тупроғинг дурдир.
 Бу жоним фидо сенга, онажоним,
 Гулла, яшнагин ҳур Ўзбекистоним.

Мардлар маконисан, эй гўзал диёр,
 Элим-юртим деган ўғлонинг бисёр.
 Бу жоним фидо сенга, онажоним,
 Гулла, яшнагин ҳур Ўзбекистоним.

Яна яшаб гулга тўлсин боғларинг,
 Бахт билан тўлсин доим кучоқларинг,
 Боримиз фидо сенга, онажоним,
 Гулла, яшнагин, ҳур Ўзбекистоним.

СЕН

Шукрлар айтайин, тақдир азалга,
 Ҳур чиройин бериб сендай гўзалга,
 Мақтовинг солайин, куйу ғазалга
 Сен мени юракдан, севган гулимсан.

Бир бор кўрганимда, бузилди тинчим,
 Эсласам васлингни, ёнадир ичим,
 Кундан-кунга ортиб, борар соғинчим,
 Сен мени юракдан, севган гулимсан.

Сенсан осмонимда, ёнган нур, юлдуз,
 Сенсан юрагимда, тошган бир денғиз,
 Сенга муҳаббатим, аталган чексиз,
 Сен мени юракдан, севган гулимсан.

Богингда сайраган, ошиқ булбулман,
 Ишқингда ўртанган ёниқ бир дилман,
 Сени яратганга мен ҳам бир қулман,
 Сен мени юракдан, севган гулимсан.

Интизорман кутиб, ҳар кун йўлингда,
 Айтчи истак борми, менга дилингда,
 Севгим шу, бу танлаш, сенинг қўлингда,
 Сен мени юракдан, севган гулимсан.

АСКАР ҚЎШИҒИ

Юртим тинчлиги деб, сергакман,
Халқим, елкасига тиргакман,
Келажак авлодга ўрнакман,
Мен фидойи ўғлон -аскарман!

Тинчлик, - менинг буюк шиорим,
Ватанга хизмат - номус, орим.
Шу ватанга бахшида борим,
Мен фидойи ўғлон -аскарман!

Майли, узун тун уйқу билмай.
Машаққатни кўзимга илмай,
Халқим юзида қайғу кўрмай.
Мен фидойи ўғлон - аскарман!

Тупроғи, кўзимга тўтиё,
Ҳар бир майсаси меҳригиё
Шараф унга бўлмоқлик фидо
Мен фидойи ўғлон - аскарман!

ОБОД ТУРМУШ

Ҳалол меҳнат билан яшамоқ ширин,
Бунда ҳаёт жуда гўзал бўлади.
Меҳр билан безанг оила кўркин,
Турмуш тотли, худди асал бўлади.

Юртни обод қилмоқ, ажоддан мерос,
Авлодларга, бу зўр шиор бўлади.
Ватан ҳимояси мард инсонга хос,
Йигит доим сергак, хушёр бўлади.

Мустақиллик, улуғ беқиёс неъмат,
Неъмат қадрин билган, бахтли бўлади.
Элга, халққа қилинг чин дилдан хизмат,
Эли бор бадавлат, тахтли бўлади.

ЎЗГА ЮРТДА

Ўз юртида бориға қилмай шукр,
Пул-бойлик топаман деб қилиб фикр,
Хориж сари кетдингиз нега ахир?!
Ўзга юртда озор чеккан юртдошим.

Ахир бизда озод, эркин, ҳур ҳаёт,
Ҳаракат қилсангиз тўкин, пур ҳаёт,
Келар эди ўзи бойлик, баракот,
Ўзга юртда озор чеккан юртдошим.

Эр кишиға ярашмайди бу юмуш,
Ўзга элда мусофир бўлиб юриш,
Ахир бизда гўзал, ажойиб турмуш,
Ўзга юртда озор чеккан юртдошим.

Барибир бир куни юртга қайтарсиз,
Юргимиз қадрини дилдан англарсиз,
Шу юрт учун шукроналар айтарсиз.
Ўзга юртда озор чеккан юртдошим.

ЮРТ ХАЁЛИ

Кўнглим олиб кетар мени узоққа,
Олисларға учиб кетган қуш мисоли,
Фақат биргина ҳис тўхтатар бормоққа
Онамдай меҳрибон бўлган юрт жамоли.

Ишқи тезлатар уриб турган юрагим,
Меҳр бўлакдир киндик қон томган тупроққа,
Учувчи шамоллар уйғотса истагим,
Тўсиқ бўлар Ватан севгиси бормоққа.

Тонг отса, нурга тўлган осмони гўзал,
Кун ботса, юлдузли оқшоми гўзал,
Янги туғилган чақалоқдек, беғубор
Зарра гард инмаган ҳар бир тонги гўзал.

СЕВ

Кимга синов, кимга ёлгон бу дунё
 Ким, амалин беркитар, кимда риё,
 Она юртни сотмоқдан, қилгин ҳаё,
 Сев, тупрогин кўзга, айла тўтиё

Онам, деб билиб, ҳурмат бажо айла,
 Отам, деб билиб, ўзни фидо айла,
 Неки истаса ул, муҳайё айла,
 Сев, тупрогин кўзга, айла тўтиё.

Халқинг дарди билан яша, дармон бўл,
 Ватан тинчлигини асра, қалқон бўл,
 Ҳамиша адолат ва ҳақ томон бўл,
 Сев, тупрогин кўзга, айла тўтиё.

Ватан тинч бўлмаса, тинч бўлмагайсан,
 Ватан кулмаса, сен ҳам кулмагайсан,
 Халқим, элим десанг, кам бўлмагайсан,
 Сев, тупрогин кўзга, айла тўтиё!

БОБОДЕҲҚОН

Тўрт фаслда ҳам тинмайди,
 Чарчоқ нелигин билмайди,
 Тушда ҳам, ерин ўйлайди,
 Халқ севар, полвоним ўзинг,
 Бекбободехқоним ўзинг.

Сен борсанки, юртим обод,
 Сен борсан, фаровон ҳаёт,
 Чеккан, ҳар заҳматинг новвот,
 Халқпарвар, полвоним ўзинг,
 Бекбободехқоним ўзинг.

Оқ пахтадай оқ ниятинг,
 Оқ кияр элу миллатинг,
 Алқар Отабек Қувватинг,
 Халқпарвар, полвоним ўзинг,
 Бекбободехқоним ўзинг.

ЭЙ ОДАМ

Тинчлик нима эй одам?
 - Тинчлик бу олий неъмат!
 Унда ҳамма хотиржам,
 Бу шундай буюк ҳикмат.

Тинчлик бўлса оламда,
 Ҳар кун тўй, ҳар кун байрам.
 Мангу баҳор кулгандай
 Мудом булбуллар сайраб.

Саломатлик не одам?
 Соғлик бу туман бойлик.
 Гар хаста бўлса тананг,
 Қўнгилга сиғмас шодлик.
 Хасталардан ол ибрат.
 Шукр қилсанг ҳар куни,
 Чекинар қайғу, кулфат.

ЭЙ ЁР

Табассуминг билан яйрайди, қўнгил,
 Мени севсанг ёрим, менга бир бор кул,
 Сени кўрганимда, қувонар бу дил,
 Сен гул бўлсанг, менчи богингда булбул.

Муҳаббат қийноғи куйдирди, қалбим,
 Сенга етишмоқлик, армону дардим,
 Эй қошлари камон, киприги найза,
 Сени бахтли кўрмоқ, бу менинг бахтим.

Кел, муҳаббат боғни бирга кезайлик,
 Майин сабо бўлиб елиб-эсайлик,
 Сен маликам бўл, мен шаҳзоданг бўлай
 Умримизни севги ила безайлик!

АЙТИШУВ

Йигит;

Чиройингиз айтай, ой мисол,
Соядай қолмай, изингиздан,
Севиб қолдим-ку, соҳибжамол
Розилик истай, ўзингиздан.

Қиз;

Чиройда, қандай ой бўламан,
Мақтаманг, жуда уяламан,
Сўзингиз, чинлигин биламан
Севгингиз билинар, кўзингиздан.

Йигит;

Фақат сизни излар кўзларим,
Ишонинг, чин менинг сўзларим,
Гулим дебон, сизни изладим,
Розилик истай, ўзингиздан.

Қиз;

Муҳаббатингиз дарё бўлса,
Мен унда зилолдай тўлайин.
Сиздайин йигит, истар бўлса,
Боғда ол гулингиз бўлайин.

Йигит;

Розилигингиз олдим, севиб,
Жон бўлай азиз жонингизга,
Маликам бўлинг, чиндан суйиб,
Шаҳзода бўлай, ёнингизда.

Қиз;

Отабекдай бегим бўлингиз,
Кумушдайин, ёрингиз бўлай,
Ўзгаларга қиё боқмайин,
Доим сизнинг зорингиз бўлай.

ОНАМГА

Қалб тубида, давосиз қайғу,
 Юрак огрир огриб кўмсайди,
 Шодон кунлар эмаскан мангу,
 Онажонгинам сизни соғиндим.
 Ҳаётда кўрдим не берса қисмат,
 Сўзингиз эсладим, келса кулфат,
 Сизсиз ўтказган кунлар ҳам зулмат,
 Онажонгинам сизни соғиндим.
 Оҳ, борлигингиз ғанимат экан,
 Меҳрингиз, бу улуғ неъмат экан,
 Айтган сўзингиз, дур, ҳикмат экан,
 Онажонгинам, сизни соғиндим.
 Умр омонат, дийдор ғанимат,
 Ота-оналар тенги йўқ давлат,
 Сизсиз бу дунё, менга тор фақат,
 Онажонгинам, сизни соғиндим.

ЎЗБЕК ҚИЗИ

Момолардан мерос, ҳаё,
 Ярашади сизга, ибо,
 Ҳурлар каби, гўзал гўё,
 Гуллар боқар, ўзбек қизга.
 Атлас кўйлак, ярашади,
 Ҳамма мафтун қарашади,
 Ҳуснда ой талашади,
 Олам боқар, ўзбек қизга.
 Чиройингиз ажиб достон,
 Йўлдош бўлсин, ҳаё, имон,
 Фахрлансин Ўзбекистон,
 Тасанно деб ўзбек қизга!

ДЎСТ

Фамлар юрагим этар пора,
 Дардимга йўқдир бирор чора,
 Дўст қидириб, бўлдим овора,
 Тушунган дил топилса зора.
 Мен ҳам ожиз банда, бор хатом,
 Айбсиз фақат яратган эгам,
 Дунёда бор қанча кўнгли кам,
 Олам ичра чин дўст мукаррам.
 Ким пул учун, дўстликни сотар,
 Ким дўстига етказар хатар,
 Азалдан бу дунё бири кам,
 Эй дил, ўзингга, чин дўст ахтар.
 Ҳаёт икки йўл, эгри-тўғри.
 Ким тўғридир, ким бунда ўғри.
 Кўзи ўткир, юраги чўғли
 Чин дўст керак, эй одам ўғли.

ЁЛФИЗИМ

Сен богимда очилган гулим,
 Ҳаётимни айлаган сўлим,
 Қайда бўлмай, сендадир кўнглим,
 Бахтли бўлсанг бас, эй севгилим.
 Йўлимга кўз тикиб, кутган сен,
 Гоҳо аччиқ фамлар ютган сен,
 Балолардан омон ўтган сен,
 Бахтли бўлсанг бас, эй севгилим.
 Гар узоқ бўлсам, соғинаман,
 Бегим десанг-чи овунаман,
 Сенга етмоққа ошиқаман,
 Бахтли бўлсанг бас, эй севгилим.
 Асло тўкма кўзингдан ёшинг,
 Оилам чироғи, қуёшим,
 Ҳаётдаги ёлғиз сирдошим,
 Бахтли бўлсанг бас, эй севгилим.

ИЛТИЖО

Мен сенинг ишқингда, девонадирман,
Энди, алам ичра, афсонадирман,
Изинг излаб, йўлда парвонадирман.
Ёрим билмай қадринг, бегонадирман.

Ўйламайин сенга зулмлар қилдим,
Севгинг билмай, қанча юрагинг тилдим,
Энди ҳаётимда қадрингни билдим,
Ёрим билмай қадринг, бегонадирман.

Қайт, йўлингга оппоқ гуллар тўшайин,
Лайлисин севган Мажнунга ўхшайин,
Дунёдан совидим, вақт ўтган сайин,
Ёрим билмай қадринг, бегонадирман.

Мен энди ҳижронда телбаман, телба,
Сенсиз нураган мен эски бир кулба,
Кел умримни яна тўлдириб нурга,
Ёрим билмай қадринг бегонадирман.

ЎҚИ

Ёнсин десанг, ҳаёт чироги,
Тошсин десанг билим булоғи,
Унга чин меҳринг бергин, бола
Ўқи, китоб билим ўчоғи.

Олим бўлгин ёки қурувчи,
Ё мовий осмонда, учувчи,
Майли, денгизларда сузувчи
Ўқи, китоб билим ўчоғи.

Изласанг агар ўз бахтингни,
Илм олмоққа боғла аҳдингни,
Олтиндан қил, майли тахтингни,
Ўқи, китоб билим ўчоғи.

ЭХТИЁТ БЎЛ

Юрсанг, оёғинг остига, қараб юр,
Турсанг ҳам, атрофингга боқиб тур,
Инсонлар ичидан чин дўст қидир,
Сўнг аттанг қилмагин, эҳтиёт бўл.

Ишониб, сирларинг қилма ошкор,
Ҳар яхши сенга бўлмас вафодор,
Ўйламай, балога бўлма дучор
Сўнг аттанг қилмагин, эҳтиёт бўл.

Молинг ҳисоблаб юрганлар қанча,
Ҳар кун синишинг кутганлар анча,
Дўстдир улар ёнингдан кетганча
Сўнг аттанг қилмагин, эҳтиёт бўл.

Ҳатто жон томирдан яқин Аллоҳ,
Ҳар сония сенинг ҳолингдан огоҳ,
Тушишинг кўзлаб, қазадилар чоҳ,
Ҳаммага ишонма, эҳтиёт бўл.

Ҳаётда тўғри, эгри йўллар бор,
Эгри йўлдан кетиб, бўлма абгор,
Тўғри йўлни танлашга қил қарор,
Сўнг аттанг қилмагин, эҳтиёт бўл.

Гўзалларга ишонма, алдоқчи,
Мол-дунёнгни кўзлаган, қароқчи,
Икки елканг устида бор соқчи,
Сўнг аттанг қилмагин, эҳтиёт бўл.



КЎНГЛИМ ҚОЛДИ

Севганим, бугун ташлаб кетди,
Юрагим ёқиб, ғашлаб кетди,
Нетай, кўзимни ёшлаб кетди,
Муҳаббатдан, кўнглим қолди.

Азалдан дунё ўзи бир кам,
Синовларга, бу тақдир ҳакам,
Тирик экан, синовда одам,
Муҳаббатдан, кўнглим қолди.

Бегим деб, алдаб, бағрим тилди,
Жоним деб, севгим ёлғон қилди,
Соғинтириб, устимдан кулди;
Муҳаббатдан, кўнглим қолди.

Инсоф тилаб, мен сабрдаман,
Севиб энди, мен жабрдаман,
Ўзим қаздирган, қабрдаман,
Муҳаббатдан, кўнглим қолди.

Муҳаббат - бу олий неъматдир,
Яратгандан келган, ҳикматдир,
Гўзал севги, унга ҳурматдир,
Ёлғон севгидан, дилим толди.

Муҳаббатдан кўнглим қолди...



БУНЧАЛАР

Осмондаги юлдузмисиз,
Жаннатдаги ҳур қизмисиз,
Оламда бир тенгсизмимисмиз
Бунчалар, нозлар қиласиз.

Боғдаги, лоламан дейсиз,
Зар-тилло толаман дейсиз,
Сиздан, уёламан дейсиз,
Бунчалар, нозлар қиласиз.

Юзлар қизил, олма мисол,
Қошлар янги, чиққан ҳилол,
Чиройингизга, қилиб лол,
Бунчалар, нозлар қиласиз.

Сочни илон мисол ўриб,
Келасиз, оҳиста юриб,
Бепарвосиз, ҳолим кўриб,
Бунчалар, нозлар қиласиз.

Билинг, бу дунё синоат,
Чирой кетгувчи, бир неъмат,
Ўтмиш гўзаллари ибрат,
Бунчалар, нозлар қиласиз.



МУҲАББАТ МАНГУ

Кўнгил боғимда очилган, гуллар сўлди,
Изтиробдан юрак муздек, ғамга тўлди,
Бургутдай ҳисларим, бенажот ўлди
Музлаган қояга дўнди, ҳур муҳаббат.

Йўлларингга кўзим, тикиб гирён-гирён,
Саҳроларда Мажнун каби, бўлиб сарсон,
Гулбоғимда унди тикан, райҳон хазон,
Суйган юлдуз каби сўлди, ҳур муҳаббат.

Қалдирғочлар қанот ёзди, келса баҳор,
Заррин нурдан эриди, чўққида қор,
Ҳижронга отти қалбим, келмай гул нигор
Интизор бўлиб йўлга, кўрдир муҳаббат.

Кўзлар кўр бўлиб, кўрмасайдим рухсоринг,
Қулоғим қар бўлиб, эшитаман зорин
Сенсиз дунё татимас, олай озоринг,
Сен кетдинг сўнмас наво, мангу муҳаббат.



МУҲДАРИЖА

Ватан қолади	3
Юртим достони	4
Муқаддас ватан	5
Нон азиз	5
Муносиб бўлайлик	6
Қадрига ет	6
Изҳор	7
Ношукур бўлманг	8
Авлод	8
Ота тилаги	9
Олқиш	10
Сен	10
Аскар қўшиғи	11
Обод турмуш	11
Ўзга юртда	12
Юрт хаёли	12
Сев	13
Бободехқон	13
Эй одам	14
Эй ёр	14
Айтишув	15
Онамга	16
Ўзбек қизи	16
Дўст	17
Ёлғизим	17
Илтижо	18
Ўқи	18
Эҳтиёт бўл	19
Кўнғилим қолди	20
Бунчалар	21
Муҳаббат мангу	22

Отабек Қувватов

Қалб садолари

Шеърлар

Муҳаррир:

Сойиб Мирзо

Техник муҳаррир:

Файзулло Азизов

Дизайнер:

Отабек Ёқубов

«Муҳаррир» нашриёти

Лицензия: АІ № 230. 2012 йил 16 ноябрь

Теришга 2013 йил 29 апрелда берилди.

Босишга 2013 йил 28 июнда рухсат этилди.

Бичими: 84x108 $\frac{1}{32}$. «Virtec Times» гарнитурасида
офсет босма усулида газет қоғозида босилди.

1 шарт. б.т. 1,3 ҳисоб нашр. таб.

Адади 1000 нусха. 86-сон букюртма.

«Муҳаррир» нашриёти матбаа бўлимида чоп этилди.

100060, Тошкент шаҳри, Элбек кўчаси, 8-уй

E-mail: Muharrir@list.ru

Otabek Quvvatov

Qalb sadolari

She'rlar



Toshkent
"Muharrir" nashriyoti
2013

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(50')7

Q-71

Quvvatov, Otabek

Q-71 Qalb sadolari: she'rlar / O.Quvvatov; - Toshkent:
"Muharrir" nashriyoti, 2013. 48 b.

ISBN 978-9943-25-230-1

Havaskor qalamkash erkin va ozod hayotni, obod diyorni, uning dilbar tabiatini ilhom bilan, jo'shib kuylaydi. Insonni to'g'ri va halol, mehr-oqibatli bo'lishga chaqiruvchi hikmatli bitiklarda ham uning yoniq va bezovta qalb tebranishlari seziladi. Umuman barcha she'rlar muallifning chin ma'nodagi qalb sadolariday jaranglaydi.

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(50')7

Taqrizchi:

Mirzo Ahad,

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ISBN 978-9943-25-230-1

© "Muharrir" nashriyoti,
Toshkent, 2013 y.

Mustaqilligimizning shonli 22 yilligiga bag'ishlayman.
Muallif

VATAN QOLADI

Muhammad Yusufga o'xshatma

O'tar qancha bahorlar bir-bir,
Necha yoz-kuz, qishlar, qor-yomg'ir.
Mangu emas olamda hech kim,
Biz ketarmiz dunyodan oxir.
Baxtli avlod-farzand qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Yo'lga chiqdi buyuk bir karvon,
Yo'li uzun, oydin va ravon,
Qo'ng'irog'in sadosi yangrab.
Qadamidan lol qolsin jahon
Qutlug' izlar-qadam qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Kam emasmiz, kam bo'lmagaymiz,
Hech ko'zlari nam bo'lmagaymiz.
Zarbimizdan tang qolur g'anim,
Aslo holi tang bo'lmagaymiz.
G'olib nido - jarang qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Dunyolarni tutgay dong'imiz,
Doim balqib otgay tongimiz.
Har ko'ngilga ezgulik tilab
Olam uzra yangrar bongimiz:
O'zbekiston - chaman qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi!!!

YURTIM DOSTONI

Bag'ri keng yurtimsan - jon O'zbekiston,
Zaming boylikka kon, bog'ing bo'ston,
Mehrga boy, inoq, xalqing mehribon
Sha'ningni ulug'lab, bitay men doston.

Asrlar qa'ridan ovozang kelur,
Jannatni bog'lardan sabolar yelur,
Kaftingdan humolar rizq-ro'zin terur,
Sha'ningni ulug'lab, bitay men doston.

Bobolar o'giti xazina-dunyo,
Zulmatni yoritib taralgan ziyo,
Har dono so'zini dilga etib jo,
Sha'ningni ulug'lab, bitay men doston.

Ilm eshiklarin ochgan ulug'lar,
Olamga ezgulik sochgan ulug'lar,
Xokini e'zozlab, qilib "qulluq"lar,
Sha'ningni ulug'lab, bitay men doston.

Istiqlol nuridan yashnagan o'lkam,
Shaharlar chiroyli, qishloqlar ko'rkam,
Qizlari go'zaldir, yigitlar o'ktam.
Sha'ningni ulug'lab, bitay men doston.

Bundayin go'zal yurt qayda bor, ayting,
Baraka hamda qut qayda bor ayting,
Eli shod, bag'ri but qayda bor, ayting
Ne uchun sha'niga bitmayin doston?!



MUQADDAS VATAN

Seni deb qon to'kkan ne polvon bobom,
 Seni deb jondan kechgan hoqon bobom,
 Seni deb aylansa ne zamin-zamon,
 Sen shunday muqaddassan, ulug' Vatan.

Bag'ringda ulg'aydi ulug' Sinolar,
 Yulduz ko'zlagan Ulug'bek Mirzolar,
 Navoiy qalbidan oqdi navolar.
 Sen shunday muqaddassan, ulug' Vatan.

Osmoningda Cho'lnon porlab turadi,
 Elni erkka undab-chorlab turadi.
 Qodiriylar ruhi kezib yuradi,
 Sen shunday muqaddassan, ulug' Vatan.

Istiqlol ziyosi chulg'adi bugun,
 Hurriyat bog'lari gulladi bugun,
 Dunyo ham baxtingni qutladi bugun
 Sen shunday muqaddassan, ulug' Vatan.

NON AZIZ

Bobo dehqon mehnati,
 Ona yerning ziynati,
 Har yerda bor hurmati,
 Har nedandir non aziz.

Nonvoy bobo tandiri,
 Shirmoy pishar har biri,
 Totib ko'ring ta'mini,
 Har nedandir non aziz.

Bolajon, bilgin haqqin,
 Doim baland tut qadrin,
 Ushog'in tushirmagin,
 Har nedandir non aziz.

MUNOSIB BO'LAYLIK

Shu ulug', ozod, obod, yurtni suyub,
Tuproq'in aziz muqaddas deb bilib,
Mehribon xalq xizmatin dildan qilib,
Vatanga munosib, farzand bo'laylik.

Kamol tonishiga, hissamiz qo'shib,
G'ayratdan, tomirda qonimiz jo'shib,
Yaratib, yashnatib, kuch olib, o'qib,
Vatanga munosib, farzand bo'laylik.

Ota-ona boshin yerga qaratmay,
To'g'ri yo'ldan olg'a borib, adashmay.
Halol elga chin farzandlar yarashgay,
Vatanga munosib, farzand bo'laylik.

QADRIGA YET

Yashab shu, hur zamonda,
Shunday, obod makonda,
Dil-dilingdan iqrar bo'l -
Bunday yurt yo'q, jahonda!
Yurtingni himoya et,
Istiqlol qadriga yet!

Dunyoga eshik ochiq,
Imkonlar zarday sochiq.
O'qib kamol top, yuksal,
Bari o'zingga bog'liq.
Yurtingni himoya et,
Istiqlol qadriga yet.

Ajdod ruhin etib shod,
Aziz nomin ayla yod.
Fayz qo'shgil o'z umringga
Vatanni qilib obod,
Yurtingni himoya et,
Istiqlol qadriga yet.

IZHOR

Ona yurtim O'zbekistonim,
O'zing mening yorug' jahonim,
O'zing obod, aziz bo'stonim,
Buyuk va mustaqil vatanim.

Sen borsanki, bag'rim butundir,
Sen tinchsanki, baxtim butundir,
Senga mehrim har nedan ustundir,
Buyuk va mustaqil vatanim.

Mehribon xalqqa qilay ta'zim,
Unga xizmat qilmoqdir qarzim,
Ishqi bilan tirikman har zum,
Buyuk va mustaqil vatan.

Sen panohim, boshda soyabon
Otam kabi ulug' qadrdon,
Onam kabi suyuk, mehribon,
Buyuk va mustaqil vatan.

Har bir zarrang menga zar, davlat,
Har karaming menga toju taxt,
Har lutfing menga ming inoyat,
Buyuk va mustaqil vatanim.



NOSHUKUR BO'LMANG

Bor ne'matni shukrin qiling,
Yaratganni zikrin qiling,
Yurt tinchligin qadrin biling,
Azizlar, noshukr bo'lmang.
Qulog'ingiz bilib tursa,
Oyog'ingiz yurib tursa,
Ko'zlaringiz ko'rib tursa,
Azizlar, noshukr bo'lmang.
Farzandlar barkamol bo'lsa,
Ham shodu baxtiyor bo'lsa,
Ne baxt, shunday diyor bo'lsa!
Azizlar, noshukr bo'lmang.

AVLOD

Biz erkin bolalarmiz,
Tinchlikdir tilagimiz.
Yashnagan lolalarmiz,
Vatan kelajagimiz!

Intilamiz cho'qqiga,
Kuchimiz mo'l, ko'p juda,
Burgutmiz yurt ko'kida,
Vatan kelajagimiz!

Olib ilm-gavharni,
Egallab, har hunarni,
Yuksaklarni qucharmiz,
Vatan kelajagimiz!

Ko'tarib yurt bayrog'in,
Yashnatib dala-bog'in,
Yoqib hurlik chirog'in,
Vatan kelajagimiz!

Emasmiz, hech kimdan kam,
Hech kimga emas qaram,
Borimiz shu - hur vatan,
Vatan kelajagimiz!

OTA TILAGI

Farzand ekan ne'matlarning sarasi,
Qizlarim bedor qalbimning parchasi,
O'g'lim mening yoshligim nishonasi,
Tangrim, baxt ber, ko'rib ko'zim quvonsin.-

Adashtirma, to'g'ri yo'ldan toymasin,
Doim yurti xizmatidan qolmasin.
Ilm olib, kamol topib, tolmasin,
Tangrim, baxt ber ko'rib ko'zim quvonsin.

O'rgansin hunarlar, qo'li gul bo'lsin,
Mehrga zor qilma, mehri mo'l bo'lsin,
Shundan ota-ona haqqini bilsin,
Tangrim baxt ber ko'rib ko'zim quvonsin.

Komil inson bo'lsin olib tarbiya,
Sherik bo'lsin ona xalqin dardiga,
Sodiq bo'lsin doim o'z millatiga,
Tangrim, baxt ber ko'rib ko'zim quvonsin.

Ne kasb tanlasa, o'zida ixtiyor,
Yoshlikda o'qisin, bunga imkon bor.
Tilagim shu: doim bo'lsin baxtiyor
Tangrim baxt ber ko'rib ko'zim quvonsin.



OLQISH

Qancha kuylasak ham Vatan haqida,
 Qancha so'ylasak kam Vatan haqida.
 Bu jonim fido senga, onajonim,
 Gulla, yashnagin, hur O'zbekistonim.
 Har inson senda erkin, ozod hurdir,
 Har maysa malhamu tuprog'ing durdir.
 Bu jonim fido senga, onajonim,
 Gulla, yashnagin hur O'zbekistonim.
 Mardlar makonisan, ey go'zal diyor,
 Elim-yurtim degan o'g'loning bisyor.
 Bu jonim fido senga, onajonim,
 Gulla, yashnagin hur O'zbekistonim.
 Yana yashab gulga to'lsin bog'laring,
 Baxt bilan to'lsin doim quchoqlaring,
 Borimiz fido senga, onajonim,
 Gulla, yashnagin, hur O'zbekistonim.

SEN

Shukrlar aytayin, taqdir azalga,
 Hur chiroyin berib senday go'zalga,
 Maqtoving solayin, kuyu g'azalga
 Sen meni yurakdan, sevgan gulimsan.
 Bir bor ko'rganimda, buzildi tinchim,
 Eslasam vaslingni, yonadir ichim,
 Kundan-kunga ortib, borar sog'inchim,
 Sen meni yurakdan, sevgan gulimsan.
 Sensan osmonimda, yongan nur, yulduz,
 Sensan yuragimda, toshgan bir dengiz,
 Senga muhabbatim, atalgan cheksiz,
 Sen meni yurakdan, sevgan gulimsan.
 Bog'ingda sayragan, oshiq bulbulman,
 Ishqingda o'rtangan yoniq bir dilman,
 Seni yaratganga men ham bir qulman,
 Sen meni yurakdan, sevgan gulimsan.
 Intizorman kutib, har kun yo'lingda,
 Aytchi istak bormi, menga dilingda,
 Sevgim shu, bu tanlash, sening qo'lingda,
 Sen meni yurakdan, sevgan gulimsan.

ASKAR QO'SHIG'I

Yurtim tinchligi deb, sergakman,
Xalqim, yelkasiga tirgakman,
Kelajak avlodga o'rnakman,
Men fidoyi o'g'lon - askarman!

Tinchlik, - mening buyuk shiorim,
Vatanga xizmat - nomus, orim.
Shu vatanga baxshida borim,
Men fidoyi o'g'lon - askarman!

Mayli, uzun tun uyqu bilmay.
Mashaqqatni ko'zimga ilmay,
Xalqim yuzida qayg'u ko'rmay.
Men fidoyi o'g'lon - askarman!

Tuprog'l, ko'zimga to'tiyo,
Har bir maysasi mehrigiyo
Sharaf unga bo'lmoqlik fido
Men fidoyi o'g'lon - askarman!

OBOD TURMUSH

Halol mehnat bilan yashamoq shirin,
Bunda hayot juda go'zal bo'ladi.
Mehr bilan bezang oila ko'rkin,
Turmush totli, xuddi asal bo'ladi.

Yurti obod qilmoq, ajdoddan meros,
Avlodlarga, bu zo'r shior bo'ladi.
Vatan himoyasi mard insonga xos,
Yigit doim sergak, hushyor bo'ladi.

Mustaqillik, ulug' beqiyos ne'mat,
Ne'mat qadrin bilgan, baxtli bo'ladi.
Elga, xalqqa qiling chin dildan xizmat,
Eli bor badavlat, taxtli bo'ladi.

O'ZGA YURTDA

O'z yurtida boriga qilmay shukr,
Pul-boylik topaman deb qilib fikr,
Xorij sari ketdingiz nega axir?!
O'zga yurtda ozor chekkan yurtdoshim.

Axir bizda ozod, erkin, hur hayot,
Harakat qilsangiz to'kin, pur hayot,
Kelar edi o'zi boylik, barakot,
O'zga yurtda ozor chekkan yurtdoshim.

Er kishiga yarashmaydi bu yumush,
O'zga elda musofir bo'lib yurish,
Axir bizda go'zal, ajoyib turmush,
O'zga yurtda ozor chekkan yurtdoshim.

Baribir bir kuni yurtga qaytarsiz,
Yurtimiz qadrini dildan anglarsiz,
Shu yurt uchun shukronalar aytarsiz.
O'zga yurtda ozor chekkan yurtdoshim.

YURT XAYOLI

Ko'nglim olib ketar meni uzoqqa,
Olislarga uchib ketgan qush misoli,
Faqat birgina his to'xtatar bormoqqa
Onamday mehribon bo'lgan yurt jamoli.

Ishqi tezlatar urib turgan yuragim,
Mehr bo'lakdir kindik qon tomgan tuproqqa,
Uchuvchi shamollar uyg'otsa istagim,
To'siq bo'lar Vatan sevgisi bormoqqa.

Tong otsa, nurga to'lgan osmoni go'zal,
Kun botsa, yulduzli oqshomi go'zal,
Yangi tug'ilgan chaqaloqdek, beg'ubor
Zarra gard inmagan har bir tongi go'zal.

SEV

Kimga sinov, kimga yolg'on bu dunyo
 Kim, amalin berkitar, kimda riyo,
 Ona yurtni sotmoqdan, qilgin hayo,
 Sev, tuprog'in ko'zga, ayla to'tiyo

Onam, deb bilib, hurmat bajo ayla,
 Otam, deb bilib, o'zni fido ayla,
 Neki istasa ul, muhayyo ayla,
 Sev, tuprog'in ko'zga, ayla to'tiyo.

Xalqing dardi bilan yasha, darmon bo'l,
 Vatan tinchligini asra, qalqon bo'l,
 Hamisha adolat va haq tomon bo'l,
 Sev, tuprog'in ko'zga, ayla to'tiyo.

Vatan tinch bo'lmasa, tinch bo'lmagaysan,
 Vatan kulmasa, sen ham kulmagaysan,
 Xalqim, elim desang, kam bo'lmagaysan,
 Sev, tuprog'in ko'zga, ayla to'tiyo!

BOBODEHQON

To'rt faslda ham tinmaydi,
 Charchoq neligin bilmaydi,
 Tushda ham, yerin o'ylaydi,
 Xalq sevar, nolvonim o'zing,
 Bekbobodehqonim o'zing.
 Sen borsanki, yurtim obod,
 Sen borsan, farovon hayot,
 Chekkan, har zahmating novvot,
 Xalqparvar, nolvonim o'zing,
 Bekbobodehqonim o'zing.

Oq paxtaday oq niyating,
 Oq kiyar elu millating,
 Alqar Otabek Quvvating,
 Xalqparvar, nolvonim o'zing,
 Bekbobodehqonim o'zing.

EY ODAM

- Tinchlik nima ey odam?
- Tinchlik bu oliy ne'mat!
Unda hamma xotirjam,
Bu shunday buyuk hikmat.

Tinchlik bo'lsa olamda,
Har kun to'y, har kun bayram.
Mangu bahor kulganday
Mudom bulbullar sayrab.

- Salomatlik ne odam?
- Sog'lik bu tuman boylik.
Gar xasta bo'lsa tanang,
Ko'ngilga sig'mas shodlik.
Xastalardan ol ibrat.
Shukr qilsang har kuni,
Chekinar qayg'u, kulfat.

EY YOR

Tabassuming bilan yayraydi, ko'ngil,
Meni sevsang yorim, menga bir bor kul,
Seni ko'rganimda, quvonar bu dil,
Sen gul bo'lsang, menchi bog'ingda bulbul.

Muhabbat qiynog'i kuydirdi, qalbm,
Senga yetishmoqlik, armonu dardim,
Ey qoshlari kamon, ki prigi nayza,
Seni baxtli ko'rmoq, bu mening baxtim.

Kel, muhabbat bog'in birga kezaylik,
Mayin sabo bo'lib yelib-esaylik,
Sen malikam bo'l, men shahzodang bo'lay
Umrimizni sevgi ila bezaylik!

AYTISHUV

Yigit;

Chiroyingiz aytay, oy misol,
Soyaday qolmay, izingizdan,
Sevib qoldim-ku, sohibjamol
Rozilik istay, o'zingizdan.

Qiz;

Chiroyda, qanday oy bo'laman,
Maqtamang, juda uyalaman,
So'zingiz, chinligin bilaman
Sevgingiz bilinar, ko'zingizdan.

Yigit;

Faqat sizni izlar ko'zlarim,
Ishoning, chin mening so'zlarim,
Gulim debon, sizni izladim,
Rozilik istay, o'zingizdan.

Qiz;

Muhabbatigiz daryo bo'lsa,
Men unda zilolday to'layin.
Sizdayin yigit, istar bo'lsa,
Bog'da ol gulingiz bo'layin.

Yigit;

Roziligingiz oldim, sevib,
Jon bo'lay aziz joningizga,
Malikam bo'ling, chindan suyib,
Shahzoda bo'lay, yoningizda.

Qiz;

Otabekday begim bo'lingiz,
Kumushdayin, yoringiz bo'lay,
O'zgalarga qiyo boqmayin,
Doim sizning zoringiz bo'lay.

ONAMGA

Qalb tubida, davosiz qayg'u,
Yurak og'rir og'rib qo'msaydi,
Shodon kunlar emaskan mangu,
Onajonginam sizni sog'indim.
Hayotda ko'rdim ne bersa qismat,
So'zingiz esladim, kelsa kulfat,
Sizsiz o'tkazgan kunlar ham zulmat,
Onajonginam sizni sog'indim.
Oh, borligingiz g'animat ekan,
Mehringiz, bu ulug' ne'mat ekan,
Aytgan so'zingiz, dur, hikmat ekan,
Onajonginam, sizni sog'indim.
Umr omonat, diydor g'animat,
Ota-onalar tengi yo'q davlat,
Sizsiz bu dunyo, menga tor faqat,
Onajonginam, sizni sog'indim.

O'ZBEK QIZI

Momolardan meros, hayo,
Yarashadi sizga, ibo,
Hurlar kabi, go'zal go'yo,
Gullar boqar, o'zbek qizga.
Atlas ko'ylak, yarashadi,
Hamma maftun qarashadi,
Husnda oy talashadi,
Olam boqar, o'zbek qizga.
Chiroyingiz ajib doston,
Yo'ldosh bo'lsin, hayo, imon,
Faxrlansin O'zbekiston,
Tasanno deb o'zbek qizga!

DO'ST

G'amlar yuragim etar pora,
 Dardimga yo'qdir biror chora,
 Do'st qidirib, bo'ldim ovora,
 Tushungan dil topilsa zora.
 Men ham ojiz banda, bor xatom,
 Aybsiz faqat yaratgan egam,
 Dunyoda bor qancha ko'ngli kam,
 Olam ichra chin do'st mukarram.
 Kim pul uchun, do'stlikni sotar,
 Kim do'stiga yetkazar xatar,
 Azaldan bu dunyo biri kam,
 Ey dil, o'zingga, chin do'st axtar.
 Hayot ikki yo'l, egri-to'g'ri.
 Kim to'g'ridir, kim bunda o'g'ri.
 Ko'zi o'tkir, yuragi cho'g'li
 Chin do'st kerak, ey odam o'g'li.

YOLG'IZIM

Sen bog'imda ochilgan gulim,
 Hayotimni aylagan so'lim,
 Qayda bo'lmay, sendadir ko'nglim,
 Baxtli bo'lsang bas, ey sevgilim.
 Yo'linga ko'z tikib, kutgan sen,
 Goho achchiq g'amlar yutgan sen,
 Balolardan omon o'tgan sen,
 Baxtli bo'lsang bas, ey sevgilim.
 Gar uzoq bo'lsam, sog'inaman,
 Begim desang-chi ovunaman,
 Senga yetmoqqa oshiqaman,
 Baxtli bo'lsang bas, ey sevgilim.
 Aslo to'kma ko'zingdan yoshing,
 Oilam chirog'i, quyoshim,
 Hayotdagi yolg'iz sirdoshim,
 Baxtli bo'lsang bas, ey sevgilim.

ILTIJO

Men sening ishqingda, devonadirman,
Endi, alam ichra, afsonadirman,
Izing izlab, yo'lda narvonadirman.
Yorim bilmay qadring, begonadirman.

O'ylamayin senga zulmlar qildim,
Sevging bilmay, qancha yuraging tildim,
Endi hayotimda qadringni bildim,
Yorim bilmay qadring, begonadirman.

Qayt, yo'lingga oppoq gullar to'shayin,
Laylisin sevgan Majnunga o'xshayin,
Dunyodan sovidim, vaqt o'tgan sayin,
Yorim bilmay qadring, begonadirman.

Men endi hijronda telbaman, telba,
Sensiz nuragan men eski bir kulba,
Kel umrimni yana to'ldirib nurga,
Yorim bilmay qadring begonadirman.

O'QI

Yonsin desang, hayot chirog'i,
Toshsang desang bilim bulog'i,
Unga chin, mehning bergin, bola
O'qi, kitob bilim o'chog'i.

Olim bo'lgin yoki quruvchi,
Yo, moviy osmonda, uchuvchi,
Mayli, dengizlarda suzuvchi
O'qi, kitob bilim o'chog'i.

Izlasang, agar o'z baxtingni,
Ilm olmoqqa, bog'la ahdingni,
Oltindan qil, mayli taxtingni,
O'qi, kitob bilim o'chog'i.

EHTIYOT BO'L

Yursang, oyog'ing ostiga, qarab yur,
Tursang ham, atrofingga boqib tur,
Insonlar ichidan chin do'st qidir,
So'ng attang qilmagin, ehtiyot bo'l.

Ishonib, sirlaring qilma oshkor,
Har yaxshi, senga bo'lmas vafodor,
O'ylamay, baloga bo'lma, duchor
So'ng attang qilmagin, ehtiyot bo'l.

Moling hisoblab, yurganlar qancha,
Har kun sinishing, kutganlar ancha,
Do'stdir ular, yoningdan ketgancha
So'ng attang qilmagin, ehtiyot bo'l.

Hatto jon tomirdan yaqin Alloh,
Har soniya sening holingdan ogoh,
Tushishing ko'zlab, qazadilar choh,
Hammaga ishonma, ehtiyot bo'l.

Hayotda to'g'ri, egri yo'llar bor,
Egri yo'ldan ketib, bo'lma abgor,
To'g'ri yo'lni tanlashga qil qaror,
So'ng attang qilmagin, ehtiyot bo'l.

Go'zallarga ishonma, aldoqchi,
Mol-dunyongni ko'zlagan, qaroqchi,
Ikki yelkang ustida bor soqchi,
So'ng attang qilmagin, ehtiyot bo'l.



KO'NGLIM QOLDI

Sevganim, bugun tashlab ketdi,
Yuragim yoqib, g'ashlab ketdi,
Netay, ko'zimni yoshlab ketdi,
Muhabbatdan, ko'nglim qoldi.

Azaldan dunyo o'zi bir kam,
Sinovlarga, bu taqdir hakam,
Tirik ekan, sinovda odam,
Muhabbatdan, ko'nglim qoldi.

Begim deb, aldab, bag'rim tildi,
Jonim deb, sevgim yolg'on qildi,
Sog'intirib, ustimdan kuldi,
Muhabbatdan, ko'nglim qoldi.

Insof tilab, men sabrdaman,
Sevib endi, men jabrdaman,
O'zim qazdirgan, qabrdaman,
Muhabbatdan, ko'nglim qoldi.

Muhabbat - bu oliy ne'matdir,
Yaratgandan kelgan, hikmatdir,
Go'zal sevgi, unga hurmatdir,
Yolg'on sevgidan, dilim toldi.

Muhabbatdan ko'nglim qoldi...



BUNCHALAR

Osmondagi yulduzmisiz,
Jannatdagi hur qizmisiz,
Olamda bir tengsizmimiziz.
Bunchalar nozlar qilasiz.

Bog'dagi, lolaman deysiz,
Zar-tillo tolaman deysiz,
Sizdan, uyolaman deysiz,
Bunchalar nozlar qilasiz.

Yuzlar qizil, olma misol,
Qoshlar yangi, chiqqan hilol,
Chiroyingizga, qilib lol,
Bunchalar nozlar qilasiz.

Sochni ilon misol o'rib,
Kelasiz, ohista yurib,
Benarvosiz, holim ko'rib,
Bunchalar nozlar qilasiz.

Biling, bu dunyo sinoat,
Chiroy ketguvchi, bir ne'mat,
O'tmish go'zallari ibrat,
Bunchalar nozlar qilasiz.



MUHABBAT MANGU

Ko'ngil bog'imda ochilgan, gullar so'ldi,
Iztirobdan yurak muzdek, g'amga to'ldi,
Burgutday hislarim, benajot o'ldi
Muzlagan qoyaga do'ndi, hur muhabbat.

Yo'llaringga ko'zim, tikib giryon-giryon,
Sahrolarda Majnun kabi, bo'lib sarson,
Gulbog'imda undi tikan, rayhon - xazon,
Suygan yulduz kabi so'ldi, hur muhabbat.

Qaldirg'ochlar qanot yozdi, kelsa bahor,
Zarrin nurdan eridi, cho'qqida qor,
Hijronga otti qalbim, kelmay gul nigor
Intizor bo'lib yo'lga, ko'rdir muhabbat.

Ko'zlar ko'r bo'lib, ko'rmasaydim ruxsoring,
Qulog'im kar bo'lib, eshitaman zorin
Sensiz dunyo tatimas, olay ozoring,
Sen ketding so'nmas navo, mangu muhabbat.



MUNDARIJA

Vatan qoladi	27
Yurtim dostoni	28
Muqaddas vatan	29
Non aziz	29
Munosib bo'laylik	30
Qadriga et	30
Izhor	31
Noshukur bo'lmang	32
Avlod	32
Ota tilagi	33
Olqish	34
Sen	34
Askar qo'shig'i	35
Obod turmush	35
O'zga yurtda	36
Yurt xayoli	36
Sev	37
Bobodehqon	37
Ey odam	38
Ey yor	38
Aytishuv	39
Onamga	40
O'zbek qizi	40
Do'st	41
Yolg'izim	41
Ilrijo	42
O'qi	42
Ehtiyot bo'l	43
Ko'nglim qoldi	44
Bunchalar	45
Muhabbat mangu	46